

SHEVAGA XOS SO'ZLARNING MADANIY QADRIYATI

G. Habibova ¹*Annotatsiya:*

Mazkur maqolada shevga xos so'zlarning madaniy qadriyati, ularning xalq tarixi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'rni keng tahlil qilingan. Sheva va lahjalarning tilshunoslikning dialektologiya sohasi orqali o'rganilishi, ularning fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada o'zbek shevalarining rivojlanishi va o'rganilishi ayrim professor olimlarning tasnifi orqali yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, til boyligi, dialektologiya, sheva va adabiy til, lahjalar, olimlar tasnifi, o'zbek til shevalari, Borovkov tasnifi.

Har bir xalqning urf-odati, madaniyati va turmush tarzini uning tili orqali bilib olish mumkin. Tilning boy qatlamlaridan biri esa bu – shevalardir. Shevaga xos so'zlar o'zida xalqning tarixi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarini o'zida saqlab keladi. Shevalar va lahjalar tilshunoslikning dialektologiya sohasida o'rganiladi. Dialektologiya har bir shevalarning fonetik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir [1:3].

Shevaga xos so'zlarning madaniy qadriyati xalqning o'tmishi, an'analari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Shevaga xos so'zlar har bir til madaniy merosining asosi hisoblanadi. O'zbek ilmiy adabiyotlarida sheva, lahja va dialekt atamaları turlicha ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Bu atamalarning ma'nosi ham har xil emas, chunki o'zaro ba'zi farqlarga ega bo'lgan shevalar birlashib, lahjani tashkil qiladi. Dialekt atamasi esa keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bu jihatdan "lahja" atamasi ham "dialekt" ga teng keladi [2:7].

Sheva atamasi fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, "ovoz", "til" va "so'zlashish" kabi ma'nolarni anglatadi va biror bir tilning o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatiga ega bo'lgan eng kichik qismidir. Shevalar asosan qishloq va mahalliy aholi o'rtasida ko'p uchraydi va adabiy tilga nisbatan an'anaviyrog' hisoblanadi. Lahja esa ana shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisidir. Adabiy tildan o'zining ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikrog' bo'lagi dialekt deb yuritiladi. U tilning eng kichik bo'lagi sanalgan shevalarning bir qanchasini o'z ichiga oladi, ya'ni u shevalar yig'indisidan tashkil topgan [3:30].

Shevaga xos so'zlar badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Ular asar voqelari, qahramonlari va ularning yashash muhitini yanada real tasvirini gavdalantirishda ishlatiladi. Asarning muhitini yanada aniqrog' qiladi. Masalan, qishloq hayotini tasvirlashda o'sha hududgagina tegishli bo'lgan va aholi o'rtasida an'ana tarziga kirgan so'zlardan foydalanish asarga o'zgacha atmosfera va rang-baranglik qo'shadi. Shuningdek, ular o'quvchini yanada tassavurini kengrog' qiladi va o'quvchi o'zini o'sha muhitda his qilishiga yordam beradi.

O'zbek tili shevalarining asosiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qituvchilar, ayniqsa ona tili o'qituvchilari uchun juda zarur hisoblanadi. Hozirgi kunda sheva xususiyatlari adabiy til ta'sirida juda tez birlashib, tekislanib borayotganiga qaramay, bu xususiyat faqat qishloqlarda emas, balki shaharlarda ham ma'lum darajada saqlanib turibdi. Shu sababli o'quvchilar nutqida va yozuvida uchraydigan xatolar aynan sheva ta'sirida bo'lmoqda. Shuning uchun o'qituvchilar, ayniqsa ona tili va boshlang'ich sinf o'qituvchilari adabiy til me'yorlarini yaxshi bilishi va bu me'yorlarni o'quvchilarga o'rgatishi lozimdir [4:23].

XX asrgacha shevalarimiz turli turli nuqtayi nazarlardan o'rganilgan bo'lsa, XX asrning boshlarida esa ular ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslarda o'rganilib, o'sha vaqt uchun qimmatli bo'lgan tasniflar amalga oshirilgan. Shuning uchun ham ko'plar professor olimlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo'yicha olib borilgan ishlarni shevalarimizning mamlakatimiz va qo'shni davlatlarning hududlarida joylashishi jihatdan tasnifiga misol qilib aytish mumkin. Masalan, professor A.K.Borovkov o'zi to'plab o'rgangan materiallari asosida o'zbek shevalarini quyidagicha ikkita guruhga bo'lib tasnif qilgan: 1) o – lovchi shevalar; 2) a – lovchi shevalar. O – lovchi guruhiga shahar shevalari va ular atrofidagi tumanlardagi shevalar kiradi. A – lovchi guruh shevalariga esa singarmonizmni saqlagan shevalarni kiritib, uni ikkiga ajratadi: 1) y-lovchi shevalar ; 2) dj-lovchi shevalar [5:5].

Xulosa qilib aytganda, shevaga xos so'zlar tilning madaniy qadriyatlarini saqlab qoluvchi muhim vositadir. Adabiy til xalq shevlaaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa adabiy tilimizning kelaajagi bo'lmaydi. Bugungi kundagi globalashuv jarayonida shevaga xos so'zlarni saqlash va rivojlantirish muhim

¹ Habibova Gulira'no Azizbek qizi, Sam DChTI talabasi

ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodga milliy madaniyatni tanitishda katta rol o'ynaydi. Shu sababli shevaga xos so'zlarni ilmiy asosda o'rganish va ularni avloddan-avlodga yetkazish kerak. Bu bizning tariximiz va madaniy boyligimizni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Abulkasimovna, E. Z. (2021). *Comparing Uzbek proverbs and English proverbs in literary. Thematics Journal of Social Sciences*, 7(1).
- [2]. Abulkosimovna, E. Z. (2022). *Synonymous analysis of professional words in English and Uzbek. Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(05), 15-22.
- [3]. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). *Ingiliz tilida lug'at yodlashning samarali usullari. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 152-155).*
- [4]. Ashirboyev Samixon "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent-2016.
- [5]. Bosim To'ychiboyev, Bo'ribov Hasanov "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent-2004
- [6]. Makmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). *The goals and objectives of using game activities in education. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 194-197).*
- [7]. Nazar Rajabov "O'zbek shevashunosligi" Toshkent- 1996 30-bet
- [8]. T. J. Enazarov, V.A.Karimjonova "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent-2012 23-bet
- [9]. Yoqub Saidov "O'zbek dialektologiyasi" Buxoro-2021 4-5-betlar
- [10]. Salimovna, A. C. (2023). *Teaching children how to set adequate goals and strategies. finland" modern scientific research: Topical issues, achievements and innovations"*, 14(1).
- [11]. Обруева Г.Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. *Вестник Челябинского государственного университета*, (22), 2010. – С.100-102.
- [12]. Асадова, Ч. (2019). *Абстрактные существительные в английском и русском языках. Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-3), 82-84.
- [13]. Асадова, Ч. (2022). *Xorijiy tillarni o'rganishda yosh davriga xos xususiyatlar. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 225-226.